

*O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va Sport Ishlar Vazirligi
O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti*

Musiqqa nazariyasi fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Lad. Xalq musiqqa ladlari.

*Bajardi: "Xalq ijodiyoti" bo'limi
"VJR" yo'nalishi
I bosqich talabasi
Ibragimov J.*

Tekshirdi: Qodirova X. R.

TOSHKENT - 2014

1. *Kirish*

2. *Asosiy qisim*

A) *Lad haqida umumiy tushunchasi*

B) *Major va minor ladning farqi*

C) *Major gammasi*

D) *Major gammasining tuzilishi*

E) *Garmonik va melodik major*

3. *Xulosa*

4. *Adabiyotlar ruyhati*

Kirish.

San'atning eng muhim va keng xalq ommasiga kirib boruvchi turlaridan biri musiqa san'atidir. Unda badiiy mazmun tovushlar (ohang) orqali bayon etiladi va musiqa o'ziga xos ifoda vositalarini o'zaro bog'lovchi muayyan qoidalarga asoslanadi.

Mazkur qoida va an'analar xalq (fol'klor) hamda mumtoz musiqasining (maqomlar va maqom yo'lidagi kuy va ashulalar) asrlar davomida vujudga kelgan tajribasi natijasida vujudga kelgan. Har qanday musiqani cholg'u sozida ijro etish yoki kuylash uchun musiqa elementar nazariyasini bilish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, mazkur fanni o'qitish dastlab musiqa asarlarini ijro etish va ulardagi mavjud tovush va intervallar munosabatlari borasidagi bilimlarni o'zlashtirishni qamrab oladi. Har qanday shakl va mazmundagi musiqa rang-barang tarkibiy qismlardan tashkil topadi va musiqa nazariyasi – musiqa elementar nazariyasi, garmoniya, musiqa asarlari tahlili, polifoniya va cholg'ushunoslik singari bir necha tarmoqlarga ajraladi. Musiqa tarkibiy qismlari va ularning o'zaro bog'lanishlari haqidagi materiallar musiqa va uning nazariyasiga oid fanlarda aks yettirilgan. Mazkur fanlarning boshlang'ich kursi musiqa elementar nazariyasidir. Musiqa elementar nazariyasi kursi musiqa grammatikasi, musiqa asosiy unsurlarini va ayniqsa, kuyni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ushbu fan doirasida jumladan, musiqiy tovush xususiyatlari, uning nota matnida ifodalanishi texnologiyasi, musiqa asosiy ifoda vositalari: metr-ritm, lad, garmoniya; ikki tovushning nisbati (interval), uch va undan ortiq tovushlar nisbati (akkord) va ular orqali ifodalanadigan musiqiy mazmun; ad. tonalliklarning musiqiy mazmunni ifodalash imkoniyatlari tahliliy o'rganiladi. Badiiy obraz musiqa asarlarida o'ziga xos tarzda, ya'ni, ma'lum tovushlar va ohanglar sintezi sifatida aks yettiriladi. Musiqa asarlarida shakl va mazmun bir-birini to'ldiruvchi unsurlar sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Lad – bu musiqiy tovushlarni ayrimlarini (noturg'unlarini) boshqa tovush (turg'un)lariga tortilishi bilan bog'liq bo'lgan o'zaro munosabatlari tizimidir. **Noturg'un tovushlar** deb - keyingi musiqiy harakatni talab etuvchi, tugallanmaganlik taassurotini paydo qiluvchi tovushlarga aytiladi. **Turg'un tovushlar** esa, aksincha, keyingi harakatni talab qilmaydigan, tugallanganlik, tinchlik kayfiyatlarini yaratuvchi tovushlardir. Har bir lad alohida turg'unlik xususiyatiga ega bo'lgan. boshqa barcha tovushlar unga tortiluvchi tovushga egadir. Bu tovushga – **tonika** deyiladi.

Ayrim olingan tovush o'zicha turg'unlik yoki noturg'unlik xususiyatiga ega bo'lmaydi. Tovushlarning turg'unlik yoki noturg'unlik xususiyatlari faqat musiqa asarlarida, boshqa tovushlar bilan birga kechadigan kuy yo'nalishi jarayonlarida aniqlanadi. Tovush ahamiyatining farqlari to'g'risidagi masalaga oydinlik kiritish uchun quyidagi misolni tahlil qilamiz:

Moderato

6/8

1

2

3

4

5

6

7

8

9

10

11

12

13

14

15

16

17

18

19

20

21

22

23

24

25

26

27

28

29

30

31

32

33

34

35

36

37

38

39

40

41

42

43

44

45

46

47

48

49

50

51

52

53

54

55

56

57

58

59

60

61

62

63

64

65

66

67

68

69

70

71

72

73

74

75

76

77

78

79

80

81

82

83

84

85

86

87

88

89

90

91

92

93

94

95

96

97

98

99

100

101

102

103

104

105

106

107

108

109

110

111

112

113

114

115

116

117

118

119

120

121

122

123

124

125

126

127

128

129

130

131

132

133

134

135

136

137

138

139

140

141

142

143

144

145

146

147

148

149

150

151

152

153

154

155

156

157

158

159

160

161

162

163

164

165

166

167

168

169

170

171

172

173

174

175

176

177

178

179

180

181

182

183

184

185

186

187

188

189

190

191

192

193

194

195

196

197

198

199

200

201

202

203

204

205

206

207

208

209

210

211

212

213

214

215

216

217

218

219

220

221

222

223

224

225

226

227

228

229

230

231

232

233

234

235

236

237

238

239

240

241

242

243

244

245

246

247

248

249

250

251

252

253

254

255

256

257

258

259

260

261

262

263

264

265

266

267

268

269

270

271

272

273

274

275

276

277

278

279

280

281

282

283

284

285

286

287

288

289

290

291

292

293

294

295

296

297

298

299

300

301

302

303

304

305

306

307

308

309

310

311

312

313

314

315

316

317

318

319

320

321

322

323

324

325

326

327

328

329

330

331

332

333

334

335

336

337

338

339

340

341

342

343

344

345

346

347

348

349

350

351

352

353

354

355

356

357

358

359

360

361

362

363

364

365

366

367

368

369

370

371

372

373

374

375

376

377

378

379

380

381

382

383

384

385

386

387

388

389

390

391

392

393

394

395

396

397

398

399

400

401

402

403

404

405

406

407

408

409

410

411

412

413

414

415

416

417

418

419

420

421

422

423

424

425

426

427

428

429

430

431

432

433

434

435

436

437

438

439

440

441

442

443

444

445

446

447

448

449

450

451

452

453

454

455

456

457

458

459

460

461

462

463

464

465

466

467

468

469

470

471

472

473

474

475

476

477

478

479

480

481

482

483

484

485

486

487

488

489

490

491

492

493

494

495

496

497

498

499

500

501

502

503

504

505

506

507

508

50

Tovushlarni turg'un yoki noturg'unligini sezish uchun, dastavval kuyni boshidan oxirigacha kuylash yoki chalib ko'rish lozim bo'ladi. Oxirigacha eshitilgan kuy o'zini tugallanganligi haqida hech qanday e'tiroz qoldirmaydi. Ammo kuyni oxirgi *do* tovushida tugatmasdan *re* tovushida to'xtab qolsak, tugallanganlik taassuroti darrov yo'qoladi va bizning eshituv qobiliyatimiz *re* dan *do* ga o'tishni talab etadi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu kuyda *do* tovushi kuyni tugallovchi turg'un tovush hisoblanadi (misolda bu tovush *a* harfi bilan belgilangan).


Kuydagi boshqa tovushlarning qaysilari turg'un va qaysilari noturg'un ekanligini aniqlash uchun kuyni ayrim, kichik bo'laklar bilan ijro qilish zarur bo'ladi. Agar kuyni boshidan *b* harfi bilan belgilangan joygacha chalib, *lya* yoki *sol* tovushida to'xtab ko'rsak, *sol* tovushi alohida bir, keyingi harakatni talab etmaydigan, birmuncha turg'un tovush ekanligi ma'lum bo'ladi, *lya* tovushi esa tugallanganlik taassurotini bermasligi tufayli noturg'un tovush hisoblanadi.

Do va *sol* tovushlaridan tashqari, bu kuyda *mi* tovushi ham nisbiy turg'un tovush ekanligi haqida ham, kuyni *v* harfi bilan belgilangan joygacha chalib ko'rib, *mi* va *fa* tovushlarini bir-biriga taqqoslab, ishonch hosil qilish mumkin: *fa* tovushi noturg'unlik taassurotini uyg'otsa, *mi* tovushi nisbiy turg'unlik taassurotini qoldiradi. Kuyda *do* tovushiga *si* tovushi yanada kuchli ravishda intilishini uchinchi taktidan to'rtinchi taktga o'tgan kuy parchasini (*g* harfi bilan belgilangan) chalib ko'rib, eshitish mumkin.

Kuy tarkibiga kiruvchi barcha tovushlarni do tovushidan yuqorilama tartibda joylashtirsak, quyidagi tovushqator hosil bo`ladi:



Turg'un tovushlar **tonika uchtovushligi** deb ataladigan asosiy turg'un akkordni hosil qiladi. Tonika uchtovushligining tovushlari turlicha darajada turg'unlik xususiyatiga egadirlar. Tonika uchtovushligining asosiy tovushi *tonika* deb ataluvchi eng kuchli turg'un tovushdir. Tonika bilan birga tonika uchtovushligining boshqa tovushlari (tertsiya va kvintasi) birmuncha noturg'unroq, o'z navbatida tonikaga intiluvchi, *varim turg'un* yoki *nisbiy turg'un* tovushlardir:



2. Major va minor ladlarining farqi

Musiqada ko'pincha major ladi bilan birgalikda tonika akkordi minor ochtovushligidan iborat *minor ladi* ham ko'p uchraydi.


Rus xalq qo'shig'i "Ax ty, Vanka"





Bu qo'shiq asosida ham, avvalgi qo'shiqdagiga o'xshagan tovushqatorning asosiy pog'onasi mavjud. Ammo, ularning turg'unlik va noturg'unlik bo'yicha o'zaro munosabatlari – boshqachadir. Bu qo'shiqni ham avvalgisiga o'xshatib tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, *lya*, *do* va *mi* tovushlari turg'un ammo, *do* va *mi* tovushlari faqat nisbiy turg'un, *lya* tovushi esa mutloq turg'un tovush ekanligini sezamiz. Shunday qilib, bu qo'shiqda tonika tovushi *lya* dir.

Agar bu qo'shiqning barcha tovushlarini tonikadan yuqorilama tartibda joylashtirib chiqadigan bo'lsak, quyidagi tovushqatorga ega bo'lamiz:




Bu misolda *lya* tonika tovushi hisoblanadi, *lya-do-mi* akkordi esa tonika uchtovushligidir. Bu minor uchtovushligi bo'lib, bu qo'shiq asosidagi lad ham – minor ladidir.

Major ladi kabi minor ladi ham tonika sifatida hohlagan bir tovushga ega bo'lishi mumkin. Masalan, agar major ladining tonikasi *fa* tovushi bo'lsa, unda tonika uchtovushligi *fa-lya-do* (qolgan barcha tovushlar noturg'unidir) bo'ladi; *sol* tovushi tonika bo'lsa, unda tonika uchtovushligi *sol-si-re* tovushlaridan iborat bo'ladi va h.k.

Lad juda muhim musiqiy ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. Major ladi minor ladi bilan yoki aksincha, almasha musiqiy obraz xarakteri birdaniga boshqacha tus oladi. Shuning uchun ham lادلarni o'rganish musiqa nazariyasi kursining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

3. Major gammasi


Tonikadan pog'onama-pog'ona tartibda joylashgan major ladining oktava hajmidagi tovushlari, yuqorilama yoki pastlama **major gammasini** tashkil qiladi:



Gamma hosil qilgan tovushlar uning **pog'onalari** deyiladi va ular rim raqamlari (I, II, III, IV, V, VI, VII, I) bilan belgilanadi. Gammaning sakkizinchi pog'onasi gammani tugallash uchun zarur bo'lgan, tonikaning oktavada takrorlanishidan iborat bo'lib, I raqami bilan belgilanadi va bu pog'onaning tonikalik ahamiyatini ta'kidlab turadi.

Oldingi mashg'ulotlardagi misoldan bizga ma'lumki, *do* tovushidan boshlanadigan major ladida *do*, *mi* va *sol* tovushlari turg'un; *re*, *fa*, *lya* va *si* tovushlari esa noturg'un tovushlardir. Shartli ravishda turg'un tovushlarni oq va noturg'un tovushlarni qora notalar bilan yozib chiqamiz. Bu usul bilan biz gammaning

qaysi pog'onalari turg'un va qaysilari noturg'un ekanligini aniqlaymiz. Strelkalar bilan noturg'un tovushlarni tortilish yo'nalishlari ko'rsatilgan:



Ma'lumki, turg'un tovushlar tonika uchtovushligi tovushlaridan ya'ni, I, III va V pog'onalar; noturg'un tovushlar esa, qolgan pog'onalar ya'ni, II, IV, VI va VII pog'ona tovushlaridan iboratdir.


Har bir noturg'un tovush yonida turg'un tovushlarga tortiladilar va bu tortilish yo'nalishlari quyidagichadir:

II pog'ona tovushi I yoki III pog'ona tovushiga,
IV pog'ona tovushi III yoki V pog'ona tovushiga,
VI pog'ona tovushi V pog'ona tovushiga,
VII pog'ona tovushi I pog'ona tovushiga tortiladilar.

VI va VII pog'onalar yonida faqat bir tarafdin turg'un tovush bor va shuning uchun ular faqat bir tomonlama tortilishga egadirlar: VI pog'ona pastga tomon V pog'onaga, VII pog'ona esa – yuqoriga, tonikaga tortiladi.

II va IV pog'onalar ikki tarafdin ham turg'un tovushlarga egadirlar, shuning uchun ular ikki tomonlama -- yuqoriga va pastga tomon - tortilish xususiyatiga egadirlar. Ammo, ularning tortilish darajalari har xildir. II pog'onaning pastga tomon - I pog'onaga tortilishi ancha yorqin eshitiladi, chunki, I pog'ona – ladning tonikasi ancha kuchli tortish kuchiga egadir. IV pog'onaning pastga – III pog'ona tomon tortilishi kuchlidir chunki, IV pog'ona bilan III pog'ona oralig'i (yarim ton) IV va V pog'onalar oralig'iga (bir ton) qaraganda kamdir. Noturg'un tovush bilan turg'un tovush orasi qanchalik kam bo'lsa, tortilishlar ham shuncha kuchli bo'ladi.


Major gammasi tovushlari tortilishini quyidagi shaklda yaqqol tasavvur qilish mumkin:




Bu shakldan ma'lumki, major gammasining har bir turg'un tovushi o'ziga tortiluvchi ikkita noturg'un tovush bilan o'ralgan. Gammaning barcha pog'onalari ichida VII pog'ona tovushining noturg'unlik darajasi ancha kuchlidir, chunki u eng kuchli turg'un tovush – tonikadan atigi yarim ton masofada joylashgan.

Gamma pog'onalari raqamlar bilan belgilanishidan tashqari mustaqil nomlarga ham egadirlar. Avval ta'kidlanganidek, I pog'ona *tonika* (lotincha tonus ya'ni, tovush so'zidan) deb ataladi va qisqacha lotin alifbosining T harfi bilan belgilanadi. Boshqa pog'onalar o'zlarining tonika bilan o'zaro munosabatlari yoki lad funktsiyalaridan kelib chiqib nomlanadilar.


Tonika atrofida joylashgan va unga toritiluvchi II va VII pog'onalar *boshlovchi tovushlar* deyiladi. VII pog'ona yuqoriga boshlovchi, II pog'ona esa pastga tomon boshlovchi tovush hisoblanadi:



V va IV pog'onalar mumtoz musiqada katta ahamiyatga ega bo'lgan asosiy pog'onalar bo'lganliklari sababli, **dominanta** (V pog'ona – “ustun”, “asosiy”) va **subdominanta** (IV pog'ona – “pastki dominanta”) deb ataladilar. Tonikadan kvinta yuqorida, lotincha **D** harfi bilan belgilanuvchi yuqorigi dominanta, kvinta pastda esa lotincha **S** harfi bilan belgilanuvchi pastki dominanta joylashgan.



T va D oralig'ida joylashgan III pog'ona va T va S oralig'ida joylashgan VI pog'onalar **medianta** (o'rtaliq) deyiladi. T dan yuqorida joylashgan III pog'onaga **yuqorigi medianta**, T da pastda joylashgan VI pog'onaga **pastki medianta** deyiladi:



Pog'onalarining nomlarini yuqorilama tartibda keltiramiz:

- I pog'ona – tonika (T),
- II pog'ona – pastga boshlovchi tovush,
- III pog'ona – yuqorigi medianta,
- IV pog'ona – subdominanta (S),
- V pog'ona – dominanta (D),
- VI pog'ona – pastki medianta,
- VII pog'ona – yuqoriga boshlovchi tovush.

Musiqada ko'p qo'llaniladigan - tonika, dominanta va subdominantaga ladning asosiy pog'onalari, boshqa pog'onalar esa **yondosh pog'onalar** deyiladi.

4. Major gammasining tuzilishi

Har bir major gammasining asosini uning pog'onalari orasida hosil bo'ladigan to'rtinchi darajali tonlarning ma'lum bir nisbatlari tashkil etadi. Bu nisbat quyidagi shakl ifodalanganadi: 1 ton, 1 ton, 1 2 ton, 1 ton, 1 ton, 1 ton, 1 2 ton:




Qaysi tovush tonika bo'lishidan qat'iy nazar ton va yarim tonlarning ko'rsatilgan ketma-ketligi barcha major gammalari uchun bir xildir. Masalan, *re* tovushi tonika hisoblanganda tonika uchtovushligi *re - fa-diez - lya* tovushlaridan iborat bo'ladi, *re*-major gammasi esa quyidagi tovushqatorni hosil qiladi:



Ana shunday major gammasiga **tabiiy major gammasi** deyiladi; bu gamma ko'rganimizdek, tovushqatorning asosiy pog'onalaridan tuzilishi mumkin.

Tabiiy major gammasini har biri to'rtta tovushdan iborat ikkita qismga bo'lish mumkin; I pog'onadan IV pog'onagacha va V pog'onadan yuqorigi I pog'onagacha. Bu qismlarning har biri **tetraxord** (yunoncha. tetra – to'rt, chorde – tor) deb ataladi. Tetraxordlar bir-biridan 1 ton oralig'i bilan ajratilgan. Major gammasining ikkala tetraxordi ham bir xil bo'lib, ularning tuzilishi - ton, ton va yarim tonni tashkil etadi:



Bunday tetraxordga **major tetraxordi** deyiladi.

5. Major tonalliklari

5.1 Tonallik

Do va *re* tovushlaridan tuzilgan major ladiari gammalarini bir-biriga taqqoslab, ularning bir xil tuzilganligiga, bir xilda eshitilishiga ammo, ular joylashgan balandligi va alteratsiya belgilari bilan farq qiluvchi turlicha tovush tarkiblari bilan farq qilishiga ishonch hosil qilish mumkin.

Ma'lum bir tonikaga va o'zining doimiy alteratsiya belgilariga ega bo'lgan lad – **tonallikni** hosil qiladi. Tonalliklar o'z nomini tonika sifatida qabul qilingan tovush va ladni belgilovchi so'z qo'shilmasidan oladi. Masalan, *do* major tonalligi – tonikasi *do* tovushi bo'lgan major ladir, *mi* major tonalligi esa tonikasi *mi* tovushi bo'lgan major ladir.

Tonalliklar harfiy ishoralar bilan belgilanganda “major” so'zi *dur* (lotincha. *durus* – qattiq) so'zi bilan almashadi, masalan, *do* major = C-dur, *fa* major = F-dur,

mi-bemol major = Es-dur va h.k. Major tonalliklarining nomlari harfiy ishoralar bilan belgilanganda doimo katta harflar bilan yoziladi: E-dur, D-dur, H-dur va h.k.

5.2 Major tonalliklari

Diez belgilarining soni tobora ortib boruvchi tonalliklarning ketma-ketligini, har bir yangi gammani avvalgisidan sof kvinta yuqorida (diezli major tonalliklarini) tuzish mumkin. Xuddi shunga o'xshatib bemolli tonalliklar ketma-ketligini, avvalgisidan sof kvinta pastda tuzish mumkin. Bunda intervallar aylanishi qoidalaridan kelib chiqib, qulay bo'lishi uchun tonalliklarni kvinta yuqorida tuzish o'rniga kvarta pastda, kvinta pastda tuzish o'rniga kvarta yuqorida tuzish mumkin.


Musika asarlarining tonalliklarini to'g'ri aniqlash uchun har bir tonallikning kalit alteratsiya belgilarini mahkam esda saqlab qolish kerak bo'ladi.

Har bir tonallik o'zining alteratsiya belgilariga ega bo'lganligi sababli, kalit alteratsiya belgilari har bir tonallikning o'ziga xos belgisi hisoblanadi. Shuning uchun ham, kalit alteratsiya belgilariga qarab, har bir musika asarining tonalligini aniqlash mumkin bo'ladi.

Musika asarlarining nota matnlarida tonallikni aniqlovchi, kalit alteratsiya belgilaridan tashqari, ayrim tovushlarni epizodik ravishda ko'tarilishlari yoki pasayishlarini ham uchratish mumkin. Bunday hollarda alteratsiya belgilari aynan, ma'lum bir notalar oldida qo'yiladi va o'z kuchini faqat shu nota va u ko'rsatilgan oktava uchun hamda shu takt davomida saqlaydi, xolos. Bunday alteratsiya belgilariga - doimiy hisoblangan **kalit alteratsiya belgilaridan** farqli o'laroq, **tasodifiy alteratsiya belgilari** deyiladi.


Masalan:

S. Raxmaninov. Preljudyia cis-moll or.3



6. Tonalliklar engarmonizmi

Engarmonik teng tovushlar va intervallarga o'xshagan engarmonik teng tonalliklar ham uchraydi. Masalan; Sol bemol major – Fa-diez majorga, Do-bemol major – Si majorga, Do-diez major – Re-bemol majorga engarmonik ravishda tengdir:



5, 6 va 7 diezli major tonalliklarining har biri beshtadan ettigacha bemol belgisi bo'lgan bemolli tonalliklarning bittasiga engarmonik jihatdan tengdir va aksincha.


Balandligi bir xil, lekin nomlari va yozilishi turlicha bo'lgan tonalliklarga **engarmonik teng tonalliklar** deyiladi.

Engarmonik teng tonalliklar turlicha notalashtirilishiga qaramasdan, bir xil tovush balandligiga egadirlar.

Engarmonik tonalliklarning kalit belgilarining umumiy yig'indisi 12 ga tengdir.

Yuqoriga tomon sof.5 bo'yicha tuzilgan diezli va pastga tomon sof.5 bo'yicha tuzilgan bemolli major tonalliklarining joylashuv tartibiga **kvinta davrasi** deyiladi:

Major tonalliklarining kvinta davrasi



7. Garmonik va melodik major


7.1 Garmonik major

Musiqada tabiiy majordan tashqari major ladining boshqa turlari ham uchraydi. Ulardan **garmonik major** deb atalgan turi rus va chet el mumtoz kompozitorlarining musiqasida ko'p uchraydi. U tabiiy majordan pasaytirilgan VI pog'onasi bilan farq

qiladi. Garmonik majorda VI pog'onaning pasaytirilishi natijasida VI va VII pog'onalar orasida 1.5 tonlik oraliq, ya'ni ort.2 intervali hosil bo'ladi. VI pog'onaning pasayishi natijasida uning V pog'onaga tomon tortilishi yanada kuchayadi. VI pog'onaning pasaytirilishi majorning minor ladiga xos bo'yoqlarda eshutilishiga yordam beradi. Bundan tashqari VI pog'onaning pasaytirilishi akkordlar tuzilishini ham o'zgartirib yuboradi. Bu esa, o'z navbatida kuyning garmonik jo'riga ham ta'sir etadi.

Shuning uchun ham bu ladning nomi garmonik majordir.

Garmonik major tabiiy majordan shuningdek, tovushlari 0,5 ton – 1,5 ton – 0,5 ton tizimida joylashgan yuqorigi tetraxordi bilan ham farq qiladi. Tetraxordning bu turiga **garmonik tetraxord** deyiladi. Shunday qilib, garmonik major gammasi major va garmonik tetraxordlardan tashkil topadi.




Quyida keltirilgan A. Glazunovning "Raymonda" baletidagi parchada doimo garmonik Iya-major saqlanadi (fa-bekar – pasaytirilgan VI pog'ona).

A. Glazunov. "Raymonda", II ko'rinish



7.2 Melodik major

Musiqada onda-sonda bo'lsa ham melodik major deb ataladigan, kuyning pastlama harakatida VII va VI pog'onalari pasaytirilgan lad turi ham uchrab turadi.



Majorning bu turi asosan ravon harakatdagi, pastlama kuy yo'nalishlarida uchraydi.

P. Chaykovskiy. "Evgeniy Onegin", 2 ko'rinish



Tayanch tovushlar

Lad - noturg'un tovushlarni turg'un tovushlarga tortilishi bilan bog'liq bo'lgan musiqiy tovushlarning o'zaro munosabatlari tizimi.

Noturg'un tovushlar - keyingi musiqiy harakatni talab etuvchi, tugallanmaganlik taassurotini paydo qiluvchi tovushlar.

Turg'un tovushlar - keyingi harakatni talab qilmaydigan, tugallanganlik, tinchlik kayfiyatlarini yaratuvchi tovushlar.

Tonika - alohida turg'unlik xususiyatiga ega bo'lgan, boshqa barcha tovushlar unga tortiluvchi tovush.

Yarim turg'un tovushlar - tonika uchtovushligining pastki tovushidan boshqa tovushlari.

Tonika uchtovushligi - major va minorning I, III va V pog'onalaridan tuziladigan asosiy turg'un akkordi.

Major ladi - turg'un tonika akkordi major uchtovushligi bo'lgan - pog'onalari $ton - ton - 0,5 ton - ton - ton - ton - 0,5 ton$ tizimi bo'yicha joylashgan lad.

Major uchtovushligi - pastki va o'rta tovushlar orasi $kat.3$ va o'rta va yuqori tovushlar orasi $kich.3$ bo'yicha tuzilgan uchtovushlik.

Minor ladi. Minor gammasi

Turg'un tovushlari minor uchtovushligini hosil qilgan ladga **minor ladi** deyiladi. Musiqiy tilning rivojlanish jarayonida, turli davr va turli xalqlarda minorning uchta: tabiiy, garmonik va melodik turi vujudga kelgan.

Tonikadan oktava doirasida pog'onama-pog'oana joylashgan minor ladining tovushlari minor gammasini hosil qiladi. Minor ladining turiga muvofiq u tabiiy, garmonik va melodik bo'lishi mumkin.


Minor gammalarining uchta turida ham turg'un va noturg'un tovushlar major gammasiga o'xshab almashib keladi. I, III, V pog'onalar - turg'un; II, IV, VI va VII pog'onalar noturg'un hisoblanadi. Minor gammasining pog'onalari ham major gammasi singari, ya'ni I pog'ona - tonika, II pog'ona - pastga boshlovchi tovush, III pog'ona - medianta, IV pog'ona - subdominanta, V pog'ona - dominanta va h.k. deyiladi.

Minor ladining turlari

Tabiiy minor

Rus xalq qo'shig'i "Ax ty, Vanka"





Rus xalq qo'shig'i "Ax ty. Vanka" ni yana bir marta tahlil qilib, uning tovush tarkibini aniqlaymiz. Bu qo'shiqning tonika uchtovushligi *lya – do – mi* bo'lib, u minor uchtovushligidir, shu sababli qo'shiqning ladi ham minordir. Bu ladning tonikasi – *lya* tovushi, demak bu qo'shiqning tonalligi – *lya-minordir*.


Bu qo'shiqning barcha tovushlarini tonikadan yuqorilama tartibda joylashtirsak, minor gammasi hosil bo'ladi:



Minor gammasining asosida ham ton va yarim tonlarning ma'lum bir tizimi bor: gammaning shakli: *1 ton, 1/2 ton, 1 ton, 1 ton, 1/2 ton, 1 ton, 1 ton*.


Minor gammasi ham major gammasi singari ikkita tetraxorddan iborat ammo, major gammasidan farqli o'laroq, uning tetraxordlari bir xil emas, ularning tuzilishlari boshqachadir.

Tabiiy minorning pastki tetraxordi – *ton, yarimton, ton* shaklda bo'lib **minor tetraxordini**, yuqorigisi esa – *yarimton, ton, ton* shaklida bo'lib **frigiya tetraxordini** tashkil etadi. Tetraxordlar bir-biridan bir ton oralig'ida ajralgan:



Minor va frigiya tetraxordlaridan iborat minor gammasi – tabiiy minor deyiladi, chunki u xuddi tabiiy major gammasi singari (uning VI pog'onasidan boshlangan) tovush tarkibiga ega. Tabiiy major gammasi singari u ham tovushqatorning asosiy pog'onalaridan tuzilishi mumkin.

Tabiiy minorda noturg'un tovushlarning tortilish shakli ham majornikiga o'xshash ammo, majordagi eng keskin noturg'un tovush bo'lgan – yuqoriga boshlovchi tovush (VII pog'ona) – minorda birmuncha kuchsiz ifodalangan, chunki, tabiiy minorda VII pog'onadan tonikagacha bo'lgan oraliq butun tonga tengdir:




Tabiiy minor ladi ko'pchilik xalqlarning xalq qo'shiqlari uchun tipik bir holdir.
Rus xalq qo'shig'i




2.2 Garmonik minor

Ko'pchilik xalqlarning musiqasida **garmonik minor** deb ataladigan VII pog'onasi ko'tarilgan minor ladi ko'p uchraydi.



Garmonik minor gammasi tabiiy minordan yuqorigi tetraxordi bilan farq qiladi, pastki tetraxord esa o'zgarmaydi. Shunday qilib, garmonik minor gammasi minor va garmonik tetraxordlardan iboratdir:




Garmonik minorda VII pog'onaning ko'tarilishi natijasida VI va VII pog'onalar orasida 1.5 tonga teng bo'lgan (ort.2) oraliq, VII pog'ona va tonika orasida esa yarim tonlik nisbat hosil bo'ladi.

Rus xalq qo'shig'i



Melodik minor

Melodik minor garmonik va tabiiy minordan nafaqat VII, balki, VI pog'onaning ham ko'tarilishi bilan farq qiladi. Melodik minor o'z nomini asosan melodik davralarda qo'llanilishi tufayli olgan.



[illegible]

[Moderato]



Ра-зо-ма - ро - ван - го - му чуж-ды все о-бъ-ять спелъ - я преж-них дней

Шошмасдан

Ko'pchilik xalq musiqasi kabi, professional musiqada ham minor ladining afzalliklari ko'rinishlarini uzviy chatishib ketganligini ko'rish mumkin.

Major tonalliklari singari, minor tonalliklari ham, turlicha balandliklarga ega bo'lishi mumkin. ya'ni, hohlagan tovushdan boshlanishlari va shuningdek, bironta tonallik kalit belgisiga ega bo'lmagan tonallikdan (Iya minordan) boshlanib, sof.5

bo'yicha yuqoriga tomon tuzilgan diezli va sof.5 bo'yicha pastga tomon tuzilgan bemolli tonalliklarning ketma-ket zanjirini hosil qiladi. Ana shunday tarzda diezli minor tonalliklarining qatori hosil bo'ladi. (Harfiy ishora bilan belgilanishda minor moll (lot. mollis – yumshoq) so'zi bilan ifodalanadi, tonalliklarning o'zlari esa kichik bosma harflar bilan yoziladi, masalan a-moll.)


Major tonalliklari orasidagi kabi, minor tonalliklarining orasida ham uch juft qo'llaniladigan engarmonik teng tonalliklar mavjud:

re $\sharp$ minor (dis-moll) mi $\flat$ minor (es-moll)ga engarmonik teng;

lya $\sharp$ minor (ais-moll) sib $\flat$ minor (b-moll)ga engarmonik teng;

lyab $\flat$ minor (as-moll) sol $\sharp$ minor (gis-moll)ga engarmonik teng.

Minor tonalliklarining kvinta davrasi



4. Parallel tonalliklar


Musiqa asarini tonalligini aniqlash

Tonikasi lya tovushi bo'lgan lya minor tonalligini, tonikasi do tovushi bo'lgan do major tonalligi bilan taqqoslaganda bu ikkita gammaning barcha tovushlari bir-biriga to'la muvofiq kelishiga ishonch hosil qilish mumkin. VI pog'onadan boshlanib, navbatdagi VI pog'onagacha bo'lgan do-major gammasi tabiiy lya-minorni hosil qiladi. Xuddi shuningdek, III pog'onadan boshlanib, navbatdagi III pog'onagacha bo'lgan tabiiy lya minor gammasi do major gammasini hosil qiladi.

Do major va lya minor gammalari bir-biridan quyidagi xususiyatlar bilan farqlanadi:

1. Ularning tonikalari turlicha tovushdan iborat.
2. Ular turlicha lادلarga (biri major bo'lsa, ikkinchisi minor ladidir) mansubdir.

Ammo, bu ikkala tonallikning umumiy tovush tarkibining bir xil ekanligi ularni nisbatan darajada bir-biriga yaqin tonalliklar ekanliklarini bildiradi, bu yaqinlik hatto ularning tonika uchtovushliklarida ham aks etgan; bu uchtovushliklar ikkita umumiy tovushga egadirlar:




Kalit belgilari bir xil bo'lgan va umumiy tovush tarkibiga hamda tonika uchtovushliklarida ikkita umumiy tovushga ega bo'lgan major va minor tonalliklariga **parallel tonalliklar** deyiladi. Har bir major tonalligi o'zining parallel minoriga, minor tonalligi esa o'zining parallel major tonalligiga ega.

Barcha parallel tonalliklarining o'zaro nisbati xuddi do-major va lya-minor tonalliklari nisbatiga mos keladi; har bir parallel minor major tonalligining VI pog'onasidan, har bir parallel major esa minor tonalligining III pog'onasidan boshlanadi.

Masalan, sol-majorga mi-minor parallel tonallik hisoblanadi, chunki sol-majorda gammasida mi tovushi VI pog'onaga muvofiq keladi; fa-majorga re-minor, lya-majorga fa#-minor parallel va h.k. hisoblanadi.

Major va unga parallel tonalliklarning bir xil tovush tarkibiga ega ekanliklari sababli ularning doimiy (kalit) belgilari ham bir xildir, masalan:



Musiqasi asarining tonalligi birinchi navbatda tonika uchtovushligi, nota jozuvida esa - kalit belgilari bo'yicha aniqlanadi. Ammo har bir kalit belgilari soniga na faqat major, balki uning parallel minori ham muvofiq keladi, shuning uchun musiqasi asarining tonalligini to'g'ri aniqlashda odatda asarning asosiy tonallik bilan tugallanuvchi yakunlovchi qismiga e'tibor berish zarur bo'ladi. Masalan, kalit yonida *lya* major va shuningdek, fa minor tonalliklari belgisi hisoblanadigan to'rtta bemol belgisi bor, deb faraz qilamiz. Agar asar *lya* tonikasi bilan tugallangan bo'lsa - *lya* major, fa tonikasi bilan tugallangan bo'lsa - fa minor hisoblanadi.

Garmonik minor nota matnida VII pog'onani ko'tarilishini aks ettiruvchi alteratsiya belgisi kabi o'zining xarakterli belgisiga ega bo'lishi mumkin. Bu belgi tonallikni aniqlashda yordamchi vosita vazifasini bajarishi mumkin. Masalan, kalit yonida shu yuqoridagi to'rtta bemol bo'la turib, *mi* notasi oldida ⁸ belgisi qo'yilgan bo'lsa, bu holda bu belgi asar tonalligini *lya* major emas, balki garmonik fa minor ekanligini isbotlashga xizmat qiladi.





XVII-XVIII asrlarda minor ladida yozilgan musiqa asarlarini major tonikasi bilan tugallash rasm bo'lgan edi. Bu hol, albatta, asosiy tonallikni o'zgartirmaydi. Masalan I.S. Baxning "Yaxshi sozlangan klavir" 1 tom to'plamidan №2, 10 va boshqa Preljyudiya va fugalariga qarang).

Transpozitsiya

Ma'lum bir musiqa asarini tessitura (tessitura – ital. Tessitura – ayrim bir ovoz yoki musiqa asarida foydalanilgan diapazonning bir qismi) jihatidan turlicha ovozlar yoki turlicha asboblalar bilan ijro qilinganda asarning tonalligi ko'pincha noqulaylik tug'diradi. Masalan, tenor ovozi ijrosi uchun qulay bo'lgan romans, bariton ovozi uchun ancha baland bo'lishi, va aksincha, bariton uchun qulay asar, tenor uchun ancha past bo'lishi mumkin. Ko'pincha ma'lum bir asarni boshqa bir asbob uchun moslashtirilganda kompozitor tanlagan tonallik juda baland yoki juda past yoki kalit belgilari bo'yicha noqulay bo'lishi mumkin. Bunday paytlarda musiqa asari boshqa tonallikka ko'chiriladi. Musiqa asarini bir tonallikdan boshqa tonallikka ko'chirilishiga **transpozitsiya** deyiladi (transpozitsiya – keyingi lot. Transposition – o'zini almashtirish).

Har bir musiqa asarini hohlagan bir interval yuqoriga yoki pastga transpozitsiya qilish mumkin. Transpozitsiya qilganda musiqa asari ichidagi tovushlar nisbati o'zgarmasdan qolishi lozim, shu sababli, tabiiyki majordan faqat majorga, minordan faqat minorga transpozitsiya qilish mumkin.

Transpozitsiyaning turlicha usullari

a) Birinchi usul

Dastavval pesaning tonalligi aniqlanadi. Keyin transpozitsiya qilinishi lozim bo'lgan intervalga bog'liq ravishda yangi tonallik belgilanadi. Kalit yoniga yangi tonallik belgilari qo'yilib, barcha notalar transpozitsiya qilinishi lozim bo'lgan interval yuqoriga yoki pastga ko'chirilib chiqiladi. Masalan, J. Najmiddinovning "Pianino" qo'shig'ini kat.2 yuqoriga ko'chirish lozim deyaylik.



Bu qo'shiqning tonalligi – do major. Uni kat.2 yuqoriga ko'tarish uchun Re majorga transpozitsiya qilish zarur bo'ladi. Kalit yoniga re majorga tegishli 2 ta diez


belgisini qo'yib, barcha notalarni vertikal ravishda sekunda yuqoriga ko'tarib chiqamiz:



b) Ikkinchi usul

Har bir tovushni dastlabki tonallikdagi lad ahamiyatini hisobga olib, yangi tonallikda ham tovushlarning ana shu lad ahamiyatini saqlab qolish usuli. Masalan, Avaz Mansurovning "Qo'zichog'im-o'yinchoq" qo'shig'ini kat.2 intervali bo'yicha pastga tushirish lozim, deb faraz qilamiz.

Avaz Mansurov, "Qo'zichog'im - o'yinchoq"



Qo'shiqning tonalligi *mi major*, demak, bizga zarur tonallik *re major* bo'ladi. Kalit yoniga *re* majorning 2 ta diez belgisini yozib, dastlabki tovush *re* ni yozamiz. Birinchi tovush bilan ikkinchi tovush prima intervali tashkil etgan, demak ikkinchi tovush ham *re* bo'ladi. Keyingi tovush harakati sof.5 intervali bo'yicha yuz berganligi sababli, *re* tovushidan *lya* tovushiga sakraymiz va h.k., shu tartibda barcha tovushlarning gorizontal harakatidagi interval nisbatlarini o'rnatib chiqamiz.

Agar musiqa asarida tasodifiy alteratsiya belgilari uchrasa, transpozitsiya qilishda bu belgilarni hisobga olib, ular paydo bo'lgan joylarda shu belgiga muvofiq belgilarni qo'yish lozim bo'ladi. Bunda alteratsiya belgilari dastlabki tonallikda qanday vazifani bajargan bo'lsalar, keyingi tonallikda ham (bu vazifa boshqa belgi bilan ifodalanishi mumkin bo'lsa ham) xuddi shu vazifani bajarishi kerak. Masalan, qo'shiqning 2 taktidagi *fax* tovushi keyingi tonallikda *mix* bilan emas, balki *mi* bilan belgilanishi lozim, chunki, dastlabki tonallikda *fax* oldingi tovush *sol* bilan *fax* o'rtasidagi kich.2 intervalini tashkil qiladi. Yangi tonallikda bu oraliq *fa* va *mi* o'rtasidagi muvofiq keladi.



d) Uchinchi usul

Kalit belgilarini o'zgartirish usuli. Musiqa asarini diezli tonallikdan yarim ton pastga yoki bemolli tonallikdan (shuningdek, kali belgilari bo'lmagan tonalliklardan) yarim ton yuqoriga ko'tarishda barcha yozuvga qo'l tegizmasdan, kalit va tasodifiy alteratsiya belgilarini o'zgartirib yozish kifoya qiladi. Masalan, D. Zokirov qayta yozgan "Gulxan" kuyini olib ko'raylik. Dastlabki tonallik bir diezli *mi minor* tonalligidir, yarim ton pastga transpozitsiya qilganda yangi tonallik *mi minor* bo'ladi.

O'rtacha, shoshilmay

"Gulxan". D. Zokirov qayta ishlagan



s) To'rtinchi usul

Kalitni o'zini o'zgartirish usuli.

Musiqa asarlarini transpozitsiya qilishda yuqorida ko'rsatilgan usullardan tashqari kalitni o'zini o'zgartirish usulidan ham foydalanish mumkin. Bunda, yangi tonallikni hosil qilish uchun nota matni daxlsiz qoldirilib, skripka kalitini alt, bas, tenor yoki boshqa biron bir kalit bilan almashtirish kifoya qiladi.

Kalitlarni almashtirishda kalit alteratsiya belgilari yangi tonallikning kalit belgilari bilan almashtirilishi lozim:


a) mi major

O'zbek xalq kuyi

"Do'lancha"



b) fa major



d) sol major



Musiqa asariga tonallik tanlash hech qachon tasodifiy bo'lmasdan, kompozitor odatda, asarning mazmuni va xarakteriga eng maqbul tonallikni tanlaydi. Tonallikni ha deb o'zgartiraverish muqarrar ravishda tovush jarangining buzilishiga, binobarin qandaydir darajada musiqaning umumiy xarakterini o'zgarishiga ham sabab bo'ladi. Shuning uchun har bir musiqa asarini imkoni boricha muallif tomonidan yozilgan tonallikning o'zida ijro qilish, transpozitsiya imkoniyatlarini suiste'mol qilmaslik va unga eng zarur hollardagi-na qo'l urishlik lozim.

Tayanch tushunchalar

Minor ladi - turg'un tonika akkordi minor uchtovushligi bo'lgan lad.

Minor uchtovushligi – pastki va o`rta tovushlar orasi *kich.3* va o`rta va yuqori tovushlar orasi *kat.3* bo`yicha tuzilgan uchtovushlik.

Tabiiy minor ladi - pog`onalari *ton - 0,5 ton - ton - ton - 0,5 ton - ton - ton* tartibida joylashgan lad.

Minor tetraxordi - tovushlari *ton - 0,5 ton - ton* shaklida joylashgan tetraxord.

Frigiy tetraxordi - tovushlari *0,5 ton - ton - ton* shaklida joylashgan tetraxord.

Garmonik minor - VII pog`onasi *0,5 ton* yuqorga ko`tarilgan tabiiy minor ladi.

Melodik minor – yuqorilama harakatda VI va VII pog`onalari *0,5 ton* ko`tarilgan va pastlama harakatda o`z holicha qaytgan tabiiy minor ladi.

Parallel tonalliklar - kalit belgilari bir xil bo`lgan va umumiy tovush tarkibiga hamda tonika uchtovushliklarida ikkitadan umumiy tovushga ega bo`lgan major va minor tonalliklari.

Transpozitsiya - musiqa asarini bir tonallikdan boshqa tonallikka ko`chirilishi.

Xalq musiqasi ldlari

Qisqacha umumiy ma`lumotlar

Bu bobda turli xalqlarning qo`shiqchilik ijodiyotida eng ko`p uchraydigan xalq musiqasi ldlari haqida to`xtaladi.

Boshqa har qanday san`at turlari kabi, musiqa ham, o`z rivojlanish jarayonida turli xalqlarda turlicha qaror topdi. Xalq musiqa ijodida uchraydigan ldlar ham, jahon musiqa amaliyotida qaror topgan va mukammal o`rin egallagan ldlar ham bir necha asrlar davomida sekin-asta vujudga kelgan.

Major va minor ldlari taxminan XVII – asrdan boshlab professional musiqada keng tarqalgan. Ular xalq va professional musiqa ijodiyotining uzoq davom etgan rivojlanish jarayoni natijasida vujudga kelgan.

Qo`shiqlar - xalq musiqa ijodiyotining asosi hisoblanadi. Uning kelib chiqishi uzoq qadimiy davrlarga borib taqaladi. Qo`shiqlarning kurtaklari insonlarning mehnat jarayonlari bilan va ibtidoiy jamiyatning urf-odatlarini bilan chambarchas bog`liqdir. Qadimiy kuylar o`z hajmi jihatdan chegaralangandirlar. Ularning diapazoni sekunda-kvarta intervalidan oshmagan. Bunday kuylarning ko`pchiligi oddiy ritmik nisbatlarda takrorlanib turadigan chaqiriq sadolaridan iborat bo`lgan.

Bunday sodda kuylarda bizning tasavvurimizdagi lad tushunchasini topish qiyin. Echiluvchi pog`onalarsiz, bitta turg`un tovushli kuylar turlicha balandlikdagi tovushlar teng huquqligiga asoslangan lad aloqalariga ega bo`lmagan. Xalq qo`shiqlarining faqat ikkita yoki uchta tovushdan tuzilgan misollari juda ko`p uchraydi:

Masalan:


O`zbek xalq bolalar qo`shig`i
“Oq terakmi, ko`k terak”

O'rtacha tempda



O'zbek xalq bolalar o'yini
"Choriy chambar"

Ildam




Cho - ri cham - bar, bi - ri an - bar. O - na qiz qay - da, O - la - bu - la tog' - da

O'zbek xalq bolalar o'yini
"Chitti gul"

O'ynoqi



Tosh - xon qiz o' - zi o' - zi Bo - shi - da yo'r -



ma do' - zi Hay - yu chit - ti gul

Rus xalq aytishuvi
"Sinitsa bogata"



Си-ни-ца бо - га - та, мно - го на - жа - та, ви-на на-ку - ре - на, ши-ва на-ва - ре - на.

Ukrain xalq qo'shig'i "Alla"

Adagio (Og'ir)



Хо - дит ко - тик по лав - кам, у чер - во - ных чо - бот - ках. Би - ти ко - та,
Не хо - че ро -



би - ти, би - ти ко - та го хвос - ту, щоб на - ру бав хво - рос - ту,
би - ти, би - ти ко - та го спи - ну, щоб не бу - див ли - ти - зи.

Yuqoridagi kuylarning o'zida ham tovushlardan bittasida kuy tugallanib, tonika vazifasini bajaradi.

Bunday qo'shiqlar bilan bir qatorda **trixord** deb ataladigan, sof kvarta oralig'ida uchta tovushdan, ya'ni tertsiya va sekundalarning (yoki aksincha) ketma-ketligidan iborat, kelib chiqishi qadimiy bo'lgan xalq kuylari ham saqlanib qolgan:

Masalan:

Andante



Trixord kuylari uchta tovushning har birida tugallanishi mumkin, shuning uchun ham, trixordlardan o'zgaruvchanligiga asos solingan deb, hisoblash mumkin.

Turlicha ohanglarni qo'shilishidan kuy davralari tashkil topgan. Har bir xalq kuyi o'zining odatiy kuylash uslubi bilan farq qilgan.

Kuylar rivojlanishining bu davrida ularni shakllanishini kuzatish mumkin. Ba'zi bir kuylarga yarim tonlarsiz kuy davralari xos bo'lsa, ayrimlariga aksincha, yarim ton bog'lamalaridan iborat tuzilmalar xos bo'lgan.

Yarim tonlarsiz kuylarning keyingi rivoji to'liq pentatonik tizimni paydo bo'lishiga olib kelgan.

Yarim ton bog'lamalari bo'lgan kuylarning diapazoni doimo tayanch tovushlarga tutash tovushlar hisobiga kengayib borgan.

Besh va olti pog'onali tovush tarkibiga ega bo'lgan kuylarning lad moyilligi ko'pchilik hollarda ular major yoki minor uchtovushligini hosil qiluvchi tayanch tovushlar bo'lishi tufayli osongina namoyon bo'lgan.

Masalan:

O'zbek xalq kuyi "Do'lancha"

O'ynoqi



Kuyning tovushqatori


Minor uchtovushligi



O'zbek xalq kuyi "Yallama yorim"

O'ynoqi






Pog'onalar soniga ko'ra bunday lad tabiiy major va tabiiy minorga muvofiq kelsa ham, unda shakllangan kuylar o'zining tuzilishi, turg'un tovushlarni kuylanishi va ularning o'rin almashib turishi bilan xalq kuylariga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida saqlab qolgan.

Masalan:

Rus xalq qo'shig'i "Ay, na gore dub"

Allegretto



2. Etti pog'onali ladlarning alohida turlari

Xalq musiqasida pogʻonalarning turlicha diatonik ketma-ketligidagi etti pogʻonali ladlar uchraydi. Laddagi pogʻonalar ketma-ketligidagi farqlar tovushqatorda katta va kichik sekundalarning joylashish tartibidan kelib chiqqan. Bu bilan xalq musiqasi lادلari tabiiy major va tabiiy minordan farq qiladi, ammo, ularning tonikalari major yoki minor uchtovushliklari boʻlganliklari sababli, ularga - major va minor ladlariga moyil etti pogʻonali diatonik lادلarning alohida turlari sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Bu lادلarning eng ko'p qo'llaniladigan shakllari quyidagilardir:


1. VII - pog'onasi pasaytirilgan va IV - pog'onasi ko'tarilgan - major ladiga moyil 2 ta lad.
2. VI - pog'onasi ko'tarilgan va II - pog'onasi pasaytirilgan - minor ladiga moyil 2 ta lad.

Xalq musiqasi diatonik ladlarining tovush tarkibi, o'rta asrlar G'arbiy Evropa musiqasida mavjud bo'lgan oktava tovushqatoriga tashqi jihatdan o'xshash bo'lganligi sababli, ularga an'ana bo'yicha bu qadimiy lادلarning nomlari berilgan:

- VII - pogʻonasi pasaytirilgan major ladi – **miksolidiy**;
IV - pogʻonasi koʻtarilgan major ladi – **lidiy**;
VI - pogʻonasi koʻtarilgan minor ladi – **doriy**;
II - pogʻonasi pasaytirilgan minor ladiga - **frigi**y ladi deyilgan.

O'rta asr ladlarining nomlari qadimiy yunon musiqa nazariyasidan olingan bo'lsa ham, ular qadimiy yunon ldlari tuzilishi bilan o'xshash bo'lmagan.


VII - pog'onasi pasaytirilgan major (miksolidiy) ladi xalq qo'shiqlarida ancha ko'p uchraydi. Pasaytirilgan VII - pog'ona yuqoriga, I - pog'ona tomon emas, balki aksincha, VI - pog'ona orqali V - pog'onaga ravon o'tishga intiladi. Uning intonatsion xususiyati tabiiy minorning VII - pog'onasini eslatadi.




Bu ladning birinchi pog'onasidan kichik septima hosil bo'ladi. Uning xarakterli xususiyati V - pog'onadan minor uchtovushligi va VII - pog'onadan major uchtovushligining tuzilishidir.

Masalan:

Xorazm xalfa qo'shiqlaridan
"Jo'jim aytaman"




IV - pog'onasi ko'tarilgan major (lidiy) ladi nisbatan kam uchraydi. Unda birinchi pog'onadan orttirilgan kvarta intervali hosil bo'ladi.



Ukrain xalq qo'shig'i
"Vesnyanka"



Qo'shiqning tovushqatori:




VI - pog'onasi ko'tarilgan minor (doriy) ladi xalq qo'shiqlarida nisbatan tez-tez uchraydi. Unda birinchi pog'onadan katta seksta intervali hosil bo'ladi. Bu ladning xarakterli xususiyati IV va VII - pog'onalarda major uchtovushligining hosil bo'lishidir.



Rus xalq qo'shig'i "Xorovodnaya"



Qo'shiqning tovushqatori




VI

II - pog'onasi pasaytirilgan minor (frigi) ladi o'zbek xalq musiqasida ancha ko'p uchraydigan laddir. Bu ladning birinchi pog'onasidan kichik sekunda hosil bo'ladi.



Xorazm xalfa qo'shiqlaridan
"Injilmasin"



Musiqada **lokriy** ladi nisbatan kam uchraydi. Uning barcha boshqa lادلardan asosiy farqi shundan iboratki, uning tonikasi kamaytirilgan uchtovushlikni hosil qiladi. Lokriy lading tovushqatori quyidagi ketma-ketlikdan iborat: 0,5 ton – ton – ton - 0,5 ton – ton – ton – ton.




3. Pentatonika va uning turlari

Pentatonika deb - pog'onalari katta sekunda va kichik tertsiyalar bo'yicha joylashgan, besh pog'onadan iborat ladga aytiladi.

Pentatonika so'zi – yunoncha *pente* – besh va *tonos* – tovush ma'nolarini beradi.

Oktava oralig'ida, hohlagan ketma-ketlikda olingan fortepianoning qora klavishdagi tovushlari pentatonika tovushqatorini hosil qiladi. Bundan kelib chiqadi-ki, pentatonika tarkibiga: yo bitta kichik tertsiya va uchta katta sekunda; yoxud ikkita kichik tertsiya va ikkita katta sekunda kiradi:



Pentatonikaning o'ziga xos xususiyati uning tovush tarkibida kichik sekundalarning ya'ni, yarim tonlarning bo'lmashligidir. Shu tufayli pentatonikada


etti pog'onali ladlarga xos bo'lgan yorqin tortiluvchi noturg'un tovushlar yo'q. Pentatonika pog'onalari uchtonlikni ham hosil qilmaydi.

Asosida birinchi pog'onasidan major yoki minor uchtovushligi hosil bo'ladigan pentatonikaning ikkita turi keng tarqalgan.

Pentatonikaning birinchi turida tabiiy majorga nisbatan IV va VII - pog'onalar bo'lmaydi:



Pentatonikaning beshinchi turida tabiiy minorga nisbatan II va VI - pog'onalar bo'lmaydi:



Yuqorida ko'rib chiqilgan ladlarga o'xshagan pentatonika ham diatonik lad hisoblanadi.

Pentatonika ko'pgina xalqlar, jumladan, tatar, boshqird, chuvash, mari, xitoy, koreys va h.k. musiqasida asosiy lad hisoblanadi. Pentatonikaning unsurlari o'zbek xalq musiqasida ham uchraydi.

O'zbek xalq bolalar o'yini
"Laylak keldi"



Tabiiy ladlardan foydalanish musiqa eshitilishiga o'ziga xoslik baxsh etadi va uning ifoda imkoniyatlarini boyitadi. O'zbek kompozitorlari ijodida bu ladlar muhim o'rinni egallaydi.

Qadimiy tabiiy ladlar, shuningdek, tabiiy major va tabiiy minor ladlari etti pog'onali diatonik ladlar hisoblanadi. Ularni quyidagi umumiy belgilar birlashtirib turadi:

1. Ularda har bir pog'ona faqat bir ko'rinishda, xromatik o'zgarishsiz uchraydi;
2. Ularning gammalarida yondosh pog'onalar beshta katta sekunda va bir-biridan kvinta oralig'ida joylashgan ikkita kichik sekundani hosil qiladi;
3. Ularning ettita pog'onasi sof kvintalar bo'yicha joylashishi mumkin;
4. Ular tovushqatorning asosiy pog'onalaridan tuzilishilari mumkin.

Pentatonika - xromatizm yoʻqligi va pogʻonalarining sof kvintalar boʻyicha joylashishi mumkinligi bilan diatonikaga yaqindir, ammo, uning tovushqatorida kichik sekundalar yoʻq.

4. Oʻzgaruvchan ladlar

Baʼzi musiqa asarlarida va koʻpchilik xalq qoʻshiqlarida bitta emas, balki, ikkita turgʻun uchtovushikka, yaʼni ikkita tonikaga ega boʻlgan lادلarning alohida bir turi uchraydi. Bunday ladga **oʻzgaruvchan lad** deyiladi. Koʻpchilik hollarda oʻzgaruvchan lادلarning tonikalari major va unga parallel minor (yoki, aksincha) uchtovushligi hisoblanadi. Bunday ladga **oʻzgaruvchan-parallel lad** deyiladi.


Rus xalq qoʻshigʻi



Nomdosh major va minor taqqoslanadigan ladlar oʻzgaruvchan lادلarning yana bir turi hisoblanadi. Bunday lادلarga **nomdosh major-minor** yoki taqqoslanayotgan lادلardan qaysi biri ustunligiga bogʻliq holda **nomdosh minor-major** deyiladi. Major-minorning ayrimlarida lادلarning birida musiqa asari boshlanadi va tugallanadi:

Masalan:

Q. Rahimov. "Qor qoʻshigʻi"



Major-minor ladining jilolanishi, yaʼni major va minor tonikalarining tez-tez almashib turishi, shuningdek, ularning bir vaqtning oʻzida eshitilib turishi professional musiqada ham uchraydi:

B. Chaykovskiy. (1925 yil tug'.).
Ikkinchi simfoniya, III - qism



Shuningdek, dominanta tonika ahamiyatiga ega bo'lgan minor ladi ham uchra-
turadi. Uni shartli ravishda **dominanta-minor ladi** deyiladi.


Q. Rahimov. "Qo'shiq aytgim keladi...!"




5. Ikkita orttirilgan sekundali lad (ikki karra garmonik lad)

Markaziy Osiyo xalqlari (ozarboyjon, turkman, tojik va h.k.) musiqa folklorida, ayrim g'arbiy slavyan xalqlari musiqasida (masalan, bolgar), shuningdek, venger va lo'lilar musiqasida ikkita garmonik tetraxordi bo'lgan - **ikkita orttirilgan sekundali lad** keng tarqalgan. Bu ladning turlicha ko'rinishlari uchraydi. Ulardan ba'zilar garmonik minorga mos kelib, unda VII - pog'onadan tashqari IV - pog'ona ham ko'tarilgan; bunday ladga **ikki karra garmonik lad** deyiladi:

lya minor



do minor



Venger xalq qo'shig'i



M. Glinka.

“Ruslan va Lyudmila” uvertiura



Keyinchalik bu gammadan ko'pchilik kompozitorlar afsonaviy, fantastik obrazlar yaratish maqsadida foydalanganlar.

Musiqasi asarlariga alohida, g'ayri tabiiy fantastik bo'yoq berish uchun qo'llanilgan ladlar hisobiga gammasi butun va yarim tonlar ketma-ketligidan hosil bo'ladigan, kamaytirilgan uchtovushlik o'ziga xos tonika uchtovushligidan iborat bo'lgan - **kamaytirilgan lad** ham kiradi. Ladning bunday turi Rimskiy-Korsakovning afsonaviy-fantastik mazmundagi asarlarida uchratish mumkin.

Orttirilgan va kamaytirilgan ladlar XX-asr musiqasida keng qo'llanila boshlandi.

K. Debyussi. Preljudyi “Elkanlar”



Tayanch tushunchalar:

Trixord - sof kvarta oralig'idagi uchta tovushdan, ya'ni tertsiya va sekundalarning (yoki aksincha) ketma-ketligidan iborat, kelib chiqishi qadimiy bo'lgan lad.

Ioniyladi - tabiiy majorga muvofiq keladigan lad.

Miksolidiyladi - kichik septimali, VII-pog'onasi pasaytirilgan major ladi.

Lidiyladi - orttirilgan kvartali, IV pog'onasi ko'tarilgan major ladi.

Eoliyladi - tabiiy minorga muvofiq keluvchi lad.

Doriyladi - katta sekstali, VI pog'onasi ko'tarilgan minor ladi.

Frigiyladi - kichik sekundali, II pog'onasi pasaytirilgan minor ladi.

Lokriyladi - tonikasi kamaytirilgan uchtovushlikdan iborat, tovushqatori 0,5 ton - ton - ton - 0,5 ton - ton - ton - tonlar ketma-ketligidan hosil bo'lgan lad.

Pentatonika - 0,5 tonlar uchramaydigan, oktava oralig'idagi, besh pog'onali lad.

Major pentatonikasi - I - III pog'onalar oralig'i kat.3 ni tashkil etadigan ton - ton - 1,5 ton - ton tizimidagi lad.

Minor pentatonikasi - I - II pog'onalar oralig'i - kich.3 ni tashkil etadigan 1,5 ton - ton - ton - 1,5 ton tizimidagi lad.

O'zgaruvchan lad - 2 ta turg'un uchtovushlikka (asosan, major va parallel minor yoki aksincha) ega bo'lgan ladning alohida bir turi.

O'zgaruvchan-parallel lad - tonikalari major va unga parallel minor (yoki, aksincha) uchtovushligi hisoblangan lad.

Major - minor - nomdosh major va minor ladlarining almashib turishi-ga asoslangan lad.

Dominanta-minor ladi - dominantasi tonika ahamiyatiga ega bo'lgan lad.

Ikkita orttirilgan sekundali lad - 2 ta garmonik tetraxordli lad.

Ikki karra garmonik lad - garmonik minorga muvofiq keluvchi, VII - pog'onadan tashqari IV - pog'onasi ham ko'tarilgan lad.

Ikki karra garmonik dominanta - minor ladi - II va VI – pog'onalarda orttirilgan sekunda hosil bo'luvchi lad.

Orttirilgan lad - pog'onalari butun ton oralig'idagi, har bir pog'onasidan faqat orttirilgan uchtovushlik hosil bo'ladigan olti pog'onali lad.

Butun tonli gamma - butun tonlarning ketma-ketligidan iborat bo'lgan gamma.

Kamaytirilgan lad - gammasi ton va yarim tonlar ketma-ketligidan tuzilgan (kamaytirilgan septakkord o'ziga xos tonika ohangdoshligi hisoblangan) lad.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. L. Krasinskaya, V. Utkin., Elementarnaya teoriya muzыki, Moskva - «Muzыka» 1991 yil.
2. I. Sposobin. «Kurs teorii muzыki», Leningrad - 1988 yil.
3. V. V. Xvostenko. Zadachi i uprajneniya po elementarnoy teorii muzыki, Moskva - «Muzыka» 1964 yil.
4. A. A. Ostrovskiy, Kurs teorii muzыki, Moskva - 1988 yil.
5. V. A. Vaxromeev, Musiqaning elementar nazariyasi, Toshkent - «O'qituvchi» 1980 yil.
6. G. Fridkin., «Prakticheskoe rukovodstvo po muzыkalnoy gramote» M. «Muzыka» 1981g.
7. Muzыkalniy entsiklopedicheskiy slovar. Moskva - «Sovetskaya entsiklopediya» 1990g.
8. T. Solomonova, O'zbek musiqasi tarixi., Toshkent - «O'qituvchi» 1981 yil.
9. S. N. Pitin, Xorij musiqa tarixidan., Moskva - 1977 yil.
10. M. A. Aranovskiy «Muzыka XX veka» Moskva - 1987 yil.
11. I. Akbarov., Musiqa lug'ati, Toshkent - 1987 yil.
12. Q. Rahimov., Musiqaning elementar nazariyasi, Ma'lumotnoma. Toshkent - 2006 yil.
13. O'zbek xalq cholg'u musiqasi. Tuzuvchilar: K. Olimboeva va F. Karomatov, toshkent - 1955).
14. G'ijjak taronalari., Notaga olib, g'ijjak partiyasi tahriri bilan to'plovchi M. Toshmuhamedov., Toshkent - 1983.